
"G'ISHTMON" MAHALLASIDA OMMAVIY SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



Aholi bilan bevosita ochiq muloqot qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari A.Abdullayev tomonidan "G'ishtmon" mahallasida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda tadbirkorlik, bank krediti, elektr, gaz va elektr ta'minoti, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid jami 8 nafar fuqarolarning murojaatlari tinglanib, kelib tushgan murojaatlarning 2 tasi joyida qanoatlantirildi. Qo'shimcha o'rganish va vaqt talab qiladigan qolgan murojaatlar ko'rib chiqilishi yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-05-29 20:09:19